

VII. ISTE'MOL BOZORI

2023- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 5 232,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,6 %ga o'sdi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi

	mlrd. so'm	2022- yil yanvar-martga nisbatan % hisobida	Yakunga nisbatan % hisobida
Jami	5 232,8	106,6	100,0
<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:</i>			
davlat mulki	-	-	-
nodavlat mulki	5 232,8	106,6	100,0

Yirik savdo korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2023- yil yanvar-mart oylarida 837,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,0 %ga oshgan.

Kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo tovar hajmi joriy yilning yanvar-mart oylarida 4 395,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,7 %ni tashkil qilgan.


2023- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

	mlrd. so'm	2022- yil yanvar-martga nisbatan % hisobida	Yakunga nisbatan % hisobida
Chakana savdo tovar aylanmasi	5 232,8	106,6	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
yirik savdo korxonalari	837,2	104,8	16,0
kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlik	4 395,6	107,7	84,0
<i>shu jumladan: uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)</i>	<i>513,6</i>	<i>101,1</i>	<i>9,8</i>

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi

	2022- yil yanvar-mart, mlrd. so‘m	2023- yil yanvar-mart, mlrd. so‘m	o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	4 343,4	5 232,8	106,6
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	102,7	118,3	101,9
Olmaliq	381,8	446,3	103,4
Angren	311,0	361,6	102,8
Bekobod	237,9	278,6	103,6
Ohangaron	96,9	112,2	102,4
Chirchiq	232,0	271,9	103,6
Yangiyo‘l	281,4	329,0	103,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo‘rg‘on	171,6	196,2	101,1
Ohangaron	46,1	57,1	109,4
Bekobod	104,5	122,7	103,9
Bo‘stonliq	304,0	370,5	107,8
Bo‘ka	165,1	193,7	103,8
Quyichirchiq	70,6	89,1	111,7
Zangiota	646,4	815,0	111,5
Yuqori Chirchiq	116,8	137,2	103,8
Qibray	263,5	329,5	110,6
Parkent	157,8	199,9	112,1
Piskent	117,3	143,4	108,1
O‘rta Chirchiq	67,6	82,1	107,4
Chinoz	104,3	141,0	119,5
Yangiyo‘l	159,7	183,0	101,3
Toshkent	204,4	254,5	110,3


Hududlarning jami chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (%da)



Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 236,6 mlrd. so'mga yetdi yoki 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 100,2 %ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga nisbatan hisoblaganda 104,7 %ni va 1 744,1 ming so'mni tashkil etdi (2022- yilning yanvar-mart oylarida 1 474,0 ming so'mni tashkil etgan).

Hududlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi (%da)



Toshkent viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng yuqori ulush Zangiota (15,6 %), Qibray (6,9 %), Bo'stonliq (6,3 %) tumanlari hamda Olmaliq (8,5 %) va Angren (7,1 %) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so‘m	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	1 744,1	104,7
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	2 178,6	99,2
Olmaliq	3 136,5	98,5
Angren	2 019,2	100,4
Bekobod	2 723,4	101,4
Ohangaron	2 749,2	100,9
Chirchiq	1 613,5	101,6
Yangiyo‘l	4 002,5	100,8
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo‘rg‘on	1 775,5	99,3
Ohangaron	521,7	107,3
Bekobod	750,7	102,1
Bo‘stonliq	2 111,2	106,3
Bo‘ka	1 457,5	101,9
Quyi Chirchiq	778,7	109,5
Zangiota	4 862,5	111,7
Yuqori Chirchiq	996,8	101,8
Qibray	1 902,3	110,4
Parkent	1 139,6	110,2
Piskent	1 407,7	110,0
O‘rta Chirchiq	608,0	106,0
Chinoz	985,8	116,7
Yangiyo‘l	926,9	98,8
Toshkent	1 316,4	107,4

2023- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 1 744,1 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,7 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2023- yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Zangiota (4 862,5 ming so'm) va Bo'stonliq (2 111,2 ming so'm) tumanlari hamda Yangiyo'l (4 002,5 ming so'm) va Olmaliq (3 136,5 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Ohangaron (521,7 ming so'm), O'rta Chirchiq (608,0 ming so'm) tumanlari va Chirchiq (1 613,5 ming so'm) shahriga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati

